



STANDARTLASHTIRISH VA TEXNIK JIHATDAN
TARTIBGA SOLISH SOHALARIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TARMOQ
KENGASHI

KASBIY STANDART METROLOG



“Metrolog” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Kimyo sanoati sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Metrolog

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0077



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu kasbiy standartga tegishli "Metrologiya bo'yicha texnik", "Metrologiya bo'yicha professional-mutaxassis" va "Bosh metrolog" kasbi uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:
bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

Informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (*buyruq*) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

metrolog – o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash, o'lchash uslublari va vositalari, shuningdek talab qilinadigan aniqlikka erishish usullari bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni olib boruvchi mutaxassis;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (*yoki*) uning muqobil shakli;

metrologiyaga oid faoliyat – o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash, o'lchash uslublari va vositalari, shuningdek talab qilinadigan aniqlikka erishish usullari bilan bog'liq bo'lgan faoliyat;

metrologik kuzatiluvchanlik – o'lchash natijasining hujjatlashtirilgan uzluksiz kalibrlashlar ketma-ketligi orqali etalonga bog'lash mumkin bo'lgan xossasi;

metrologik ekspertiza – o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishi bilan bog'liq metrologik talablar, qoidalar va normalarni qo'llash to'g'riligi hamda to'liqligini baholash va tahlil qilish bo'yicha tashkiliy-huquqiy ishlar majmui;

sinov vositasi – sinovlar o'tkazish uchun mo'ljallangan, normalangan texnik tavsiflari bo'lgan texnik qurilma, modda va (*yoki*) material;

standart namuna – metrologik attestatsiya natijasida modda (*material*)ning xossasi yoki tarkibini tavsiflaydigan bitta yoki undan ortiq qiymatlari aniqlangan shu modda (*material*) namunasi shaklidagi o'lchash vositasi;

etalon – muayyan kattalik birligining o'lchamini boshqa o'lchash vositalariga o'tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo'ljallangan o'lchash vositasi;

o'lchashlar aniqligining ko'rsatkichi – o'lchash uslubiyotining qo'llanilayotgan normalari va qoidalariga rioya etilganda olingan o'lchash natijalari aniqligining belgilangan tavsifi;

o'lchashlarni bajarish uslubiyoti – o'lchashlarning bajarilishini va ularning natijalari belgilangan aniqlik ko'rsatkichlari bilan olinishini ta'minlaydigan operatsiyalar va qoidalar majmui;

o'lchash vositasi – o'lchashlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatlarga ega bo'lgan texnika vositasi;

o'lchash vositalarini kalibrlash – berilgan sharoitlarda o'lchash vositasi yordamida olingan kattalik qiymati va etalon bilan qayta tiklanadigan tegishli kattalik qiymati o'rtasidagi nisbatni aniqlash orqali o'lchash vositasining metrologik tavsiflarini aniqlash maqsadida bajariladigan operatsiyalar majmui;

o'lchash vositalarini qiyoslash – o'lchash vositalarining belgilab qo'yilgan metrologik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida bajariladigan operatsiyalar majmui;

o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishi – o'lchashlarning natijalari qonuniylashtirilgan birliklarda ifodalangan va o'lchashlarning aniqlik ko'rsatkichlari ma'lum ehtimollik bilan belgilangan chegaralarda joylashgan holati.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-apreldagi "Metrologiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-614-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabrdagi "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'RQ-800-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-fevraldagi "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-819-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" VM-528-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)" O'zMSt 640:2025 94/mst - sonli buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 18-iyuldagi "Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025)" O'zMSt 641:2025, 94/mst - sonli buyrug'i.

4. Kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

T/r – tartib raqami;

O'z Mst (O'z DSt) – O'zbekiston Milliy Standarti;

ISO – Xalqaro standartlashtirish tashkiloti;

IEC – Xalqaro elektrotexnika komissiyasi;

OIML – Xalqaro qonunlashtiruvchi metrologiya tashkiloti.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Metrolog	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	O'zbekiston Respublikasida o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash, ishonchsiz o'lchash natijalarining oldini olish, xolis, ishonchli va solishtiriladigan o'lchash natijalariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish, o'lchash natijalarining milliy va (yoki) xalqaro etalonlargacha metrologik kuzatiluvchanligini ta'minlash va iqtisodiyotning rivojlanishiga va ilmiy-texnik taraqqiyotiga ko'maklashish.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	<p>N seksiya: Professional, ilmiy va texnik faoliyat;</p> <p>71. Me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi faoliyat;</p> <p>71.2 Texnik sinovlar va tahlillar;</p> <p>71.20 Texnik sinovlar va tahlillar;</p> <p>71.20.0 Texnik sinovlar va tahlillar;</p> <p>72 Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar;</p> <p>72.1 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar;</p> <p>72.10 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar;</p> <p>72.10.0 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar.</p>	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	O'lchash vositalari va sinov uskunalarini xalqaro va milliy standartlarga muvofiq kalibrlash, qiyoslash, sinash va metrologik attestatsiya qilish ishlarini tashkil qilish va amalga oshirish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		31193002 Metrologiya bo'yicha texnik	5
		21415004 Metrologiya bo'yicha professional-mutaxassis	6
		13211011 Bosh metrolog	7

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	31193002 Metrologiya bo'yicha texnik	A1.5	O'lchash vositalari va sinov uskunalari metrologik attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash ishlarini amalga oshirish ishlarini tashkillashtirish	A1.01.5	Ariza beruvchiga o'lchash vositalarini attestatdan o'tkazish, qiyoslash tartib-taomillari bo'yicha maslahat berish, kelib tushgan murojaat bo'yicha o'lchash vositasi (O'V)ni metrologik attestatlash, qiyoslash sertifikatini rasmiylashtirish
		A2.5	O'lchash vositalari va sinov uskunalari metrologik muvofiqligini tasdiqlash	A2.01.5	Nazorat qilinadigan parametrlarning haqiqiy qiymatlarini aniqlash uchun aniq o'lchashlarni amalga oshirish
				A2.02.5	Ishlab chiqarish-texnik hujjatlarni rasmiylashtirish va yuritish
				A2.03.5	Kattalik birliklarini, qiyoslash va kalibrlash vositalarini qayta tiklash uchun ishchi etalonlarni saqlash va ishchi holatda saqlab turish
				A2.04.5	O'lchash vositalarini qiyoslash
				A2.05.5	O'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini, o'lchash vositalarining holati va qo'llanishini ta'minlash qoidalari va normalariga rioya etilishi ustidan metrologik nazorat
		A3.5	Bo'linmalarning metrologik ta'minoti bo'yicha ishlarni tashkillashtirish	A3.01.5	Bo'linmada namunaviy o'lchash vositalarini qiyoslash ishlarini tashkillashtirish
				A3.02.5	Etalonlar bazasi, qiyoslash uskunalari va namunaviy o'lchash vositalarini yangilash bo'yicha ishlarni tashkillashtirish
				A3.03.5	Bo'limlarda metrologik ta'minot holatini tahlil qilish
				A3.04.5	Tashkilot metrologiya xizmati bo'limlarini o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash sohasida akkreditatsiyaga tayyorlash
				A3.05.5	Texnik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish ishlarini tashkillashtirish

2.	21415004 Metrologiya bo'yicha professional- mutaxassis	B1.6	O'lchash vositalari va sinov uskunalari metrologik attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash va kalibrlash ishlarini amalga oshirish ishlarini tashkillashtirish	B1.01.6	Ariza beruvchiga o'lchash vositalarini attestatdan o'tkazish, qiyoslash va kalibrlash tartib-taomillari bo'yicha maslahat berish. Kelib tushgan murojaat bo'yicha O'Vni metrologik attestatlash, qiyoslash va kalibrlash sertifikatini rasmiylashtirish		
		B2.6	O'lchash vositalari va sinov uskunalariining muvofiqligini tasdiqlash	B2.01.6	Nazorat qilinadigan parametrlarning haqiqiy qiymatlarini aniqlash uchun aniq o'lchashlarni amalga oshirish		
				B2.02.6	Ishlab chiqarish-texnik hujjatlarni rasmiylashtirish va yuritish		
				B2.03.6	Kattalik birliklarini, qiyoslash va kalibrlash vositalarini qayta tiklash uchun ishchi etalonlarni saqlash va va ishchi holatda saqlab turish		
				B2.04.6	O'lchash vositalarini qiyoslash (kalibrlash)		
				B2.05.6	O'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini, o'lchash vositalarining holati va qo'llanishini ta'minlash qoidalari va normalariga rioya etilishi ustidan metrologik nazorat		
		B3.6	Bo'linmalarining metrologik ta'minoti bo'yicha ishlarni tashkillashtirish	B3.01.6	Bo'linmada namunaviy o'lchash vositalarini qiyoslash (kalibrlash) ishlarini tashkillashtirish		
				B3.02.6	Etalonlar bazasi, qiyoslash uskunalari va namunaviy o'lchash vositalarini yangilash bo'yicha ishlarni tashkillashtirish		
				B3.03.6	Bo'limlarda metrologik ta'minot holatini tahlil qilish		
				B3.04.6	Tashkilot metrologiya xizmati bo'limlarini o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash sohasida akkreditatsiyaga tayyorlash		
				B3.05.6	Texnik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish ishlarini tashkillashtirish		
		3.	13211011 Bosh metrolog	D1.7	Qonunlashtiruvchi metrologiya sohasini muvofiqlashtirish va rivojlantirish	D1.01.7	Metrologiyani rivojlantirish asosiy yo'nalishlari, konsepsiyalari, istiqbolli dasturlar hamda uzoq muddatli prognozlar ishlab chiqish va muvofiqlashtirish
						D1.02.7	Metrologiya sohasida qonunchilik aktlarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar kiritish va muvofiqlashtirish

				D1.03.7	Metrologik xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha akkreditatsiyadan o'tish, akkreditatsiya doirasini kengaytirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish
				D1.04.7	Xalqaro standartlar asosida zamonaviy menejment va metrologik xizmatlar sifatini boshqarish tizimlarini, shuningdek, metrologiya bo'yicha xizmatlar sifatidan mamnunlikni baholash mexanizmlarini joriy etishni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish
		D2.7	Amaliy (fundamental) metrologiya sohasini muvofiqlashtirish va rivojlantirish	D2.01.7	Mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, respublika sanoatining metrologik tekshiruvini ta'minlash uchun standart namunalar tayyorlash, etalonlar va eng yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini yaratish usul va vositalarini tadqiq qilishga yo'naltirilgan ilmiy-texnik loyihalar ishlab chiqilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish
				D2.02.7	O'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimida O'zbekiston vaqt shkalasini yuritish ishlarini amalga oshiradigan vaqt va chastota xizmatini, fizik konstantalar hamda modda va materiallarning xossalari haqida standart axborotli ma'lumotlar xizmatini, shuningdek, putur yetkazmaydigan tekshiruv xizmatini tashkil etishda qatnashish va muvofiqlashtirish
				D2.03.7	Kalibrlash uslubiyoti va vositalarini rivojlantirish va xalqaro kalibrlash uslubiyotlarini joriy etish va muvofiqlashtirish
		D3.7	Nazariy (ilmiy) metrologiya sohasini muvofiqlashtirish va rivojlantirish	D3.01.7	Yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini boshqa mamlakatlarning metrologik institutlari bilan solishtirishni amalga oshirish ishlarini tashkillashtirish va muvofiqlashtirish
				D3.02.7	Metrologiya sohasidagi yutuqlarning ilmiy texnik targ'ibotini amalga oshirish va muvofiqlashtirish
				D3.03.7	Mahalliy sanoat sohasiga innovatsion texnologiyalar va g'oyalarni o'tkazish uchun metrologiya sohasida xalqaro hamkorlikni takomillashtirish, sanoati rivojlangan mamlakatlarning yetakchi metrologiya laboratoriyalari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirishni yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirish

				D3.04.7	Xalqaro va mintaqaviy metrologiya tashkilotlarining texnik qo'mitalaridagi faoliyatni faollashtirish yo'li bilan milliy o'lchash etalonlarini va o'lchash natijalarini tan olish maqsadida shu tashkilotlar ishida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishini jadallashtirish, shuningdek, yetakchi metrologiya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha tadbirlarni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish
				D3.05.7	Innovatsion, amaliy va fundamental loyihalar bilan tanlovlarda qatnashuvchi ilmiy jamoaning tashkil etish va ularni tanlovlarda ishtirokini ta'minlash (muvofiqlashtirish)

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Metrologiya bo'yicha texnik	
Mashg'ulot nomining kodi:	31193	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); Diqqat va aniqlik; Mas'uliyatlilik; Tahliliy fikrlash; Mustaqil ishlay olish; Jamoada ishlash qobiliyati; Texnik intizomga rioya qilish; Doimiy o'rganishga tayyorlik; Muloqot madaniyati. Ish jarayonida ekologik talablarga rioya qilish; Raqamli savodxonlik; O'lchash vositalari bilan mustaqil ishlash va ularning texnik holatini baholash; Qiyoslash va kalibrlash jarayonlarini belgilangan metodikalarga muvofiq bajarish; O'lchash natijalarini tahlil qilish, aniqlik ko'rsatkichlarini baholash; Metrologik me'yoriy hujjatlar talablarini amaliy faoliyatda qo'llash; Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ekologik talablariga qat'iy rioya qilish; Ish jarayonini rejalashtirish va belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Etalonlarni saqllovchi
	6	Metrologiya bo'yicha professional-mutaxassis
	7	Bosh metrolog

Mehnat funksiyalarining tavsifi	
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari
<p>A1.5 – O'lchash vositalari va sinov uskunalarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash ishlarini amalga oshirish ishlarini tashkillashtirish</p>	<p>O'qitish natijalari</p> <p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Buyurtmachi bilan metrologik attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash zarur texnik hujjatlarni tayyorlash tartibini muhokama qilish</p> <p>2. Metrologik attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash yoki kalibrlash ishlarini amalga oshirish uchun ariza bo'yicha qarorni tasdiqlash</p> <p>3. O'lchash natijalariga ishlov berish</p> <p>4. O'lchash natijalarini hujjatlashtirish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>O'lchash asboblari bilan ishlash</p> <p>Me'yoriy hujjatlar bilan ishlash</p> <p>Ishlab chiqarish-texnik hujjatlarni rasmiylashtirish</p> <p>MS Office dasturlarida ishlash</p> <p>Axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari bilan ishlash</p> <p>Elektron ma'lumotlar bazasini yuritish</p> <p>Ma'lumotlarni qayta ishlash va hisobotlar tayyorlash</p> <p>Yangi texnologiyalar va jarayonlarni tez o'zlashtirish</p> <p>Ijtimoiy tarmoqlarda ishlarni olib borish</p> <p>Vaqtni rejalashtirish va ustuvorliklarni belgilash</p> <p>Jarayonlar aniqligi va xolisligini nazorat qilish</p> <p>Muammolarni tahlil qilish va optimal yechim topish</p> <p>Mijozlar va manfaatdor tomonlar bilan muloqot qilish</p> <p>Omma oldida nutq so'zlash va taqdimot o'tkazish</p> <p>Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va ularda ishtirok etish</p> <p>Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish</p> <p>Xavfsiz ish sharoitlarini tashkil etish</p> <p>Baxtsiz hodisalarning oldini olish choralarini ko'rish</p> <p>Energiya tejash va energiya samaradorligi bo'yicha tahlil hamda tavsiyalar ishlab chiqish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>O'lchash vositalarini attestatsiyadan o'tkazish va qiyoslash tartibi</p> <p>Qiyoslash sertifikat va metrologik attestat shakllari</p> <p>Murojaatlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi</p> <p>O'V hujjatlarini tekshirish asoslari</p> <p>Sertifikatlarni to'ldirish qoidalari</p>
	<p>A1.01.5 – Ariza beruvchiga o'lchash vositalarini attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash tartib-taomillari bo'yicha maslahat berish. Kelib tushgan murojaat bo'yicha O'Vni metrologik attestatlash, qiyoslash sertifikatini rasmiylashtirishda ishtirok etish</p>
	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p> <p>1. Analitik xarakterdagi masalalarni hal qilish uchun mas'ul</p> <p>2. Ishning texnik va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlashga mas'ul</p> <p>3. Ishni samarali tashkil etishga mas'ul</p> <p>4. Bo'limni boshqarish uchun zarur bilimga ega bo'lish</p>

A2.5 – O'lchash vositalari va sinov uskunalarining muvofiqligini tasdiqlash	A2.01.5 – Nazorat qilinadigan parametrlarning haqiqiy qiymatlarini aniqlash uchun aniq o'lchashlarni amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. O'lchash vositalarining tanloviga ta'sir qiluvchi buyumlarning parametrlarini aniqlash
		2. O'lchashlarning joiz xatoligini (noaniqligini) aniqlash
		3. O'lchash usul va vositalarini tanlash
		4. O'lchash vositalaridan foydalanish variantlarini va o'lchashlarni bajarish sharoitlarini tanlash
		5. Nazorat qilinadigan parametrlarning haqiqiy qiymatlarini aniqlash uchun o'lchashlarni bajarishga tayyorgarlik
		6. O'lchash natijalariga ishlov berish
		7. O'lchash natijalarini hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		O'lchash usul va vositalarining imkoniyatlarini tahlil qilish
	O'lchashlarni bajarish uchun zarur bo'lgan o'lchash uskunalarini qo'llash	
	O'lchash natijalarini olish, talqin qilish va tahlil qilish	
	Bilimlar:	
	O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunchiligi	
	Tashkilotda metrologik ta'minot bo'yicha ishlarni reglamentlovchi normativ va uslubiy hujjatlar	
	O'lchash usuli va vositalarini tanlash masalalarini reglamentlovchi normativ va uslubiy hujjatlar	
	O'lchashlarni bajarish shartlarini reglamentlovchi normativ va uslubiy hujjatlar	
	O'lchash usullari	
	O'lchash vositalarining texnik tavsiflari, konstruktiv xususiyatlari, belgilangan maqsadi va qo'llash tamoyillari	
	A2.02.5 – Ishlab chiqarish- texnik hujjatlarni rasmiylashtirish va yuritish	Mehnat harakatlari:
1. Bo'linmada o'lchash va sinov uslubiyotlarini reglamentlovchi attestatsiya to'g'risidagi belgi yoki sertifikatga ega hujjatlar mavjudligini tekshirish		
2. Qo'llanadigan o'lchash vositalari, o'lchash shartlari, o'lchashlarga tayyorgarlik va ularni bajarish tartibi, o'lchash natijalariga ishlov berish va rasmiylashtirishning uslubiyotni reglamentlovchi hujjatda ko'rsatilgan talablarga muvofiqligini nazorat qilish		
3. O'lchashlarni amalga oshiruvchi operatorlar malakasining hujjatda reglamentlangan darajaga muvofiqligini nazorat qilish		
4. Bo'linmalarni metrologik nazorat qilish jadvalini ishlab chiqish		
5. Metrologik nazorat natijalarini rasmiylashtirish		
6. Aniqlangan qoidabuzarliklar uchun ko'rsatmalar berish		
7. Aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar bajarilishini nazorat qilish		

		Ko'nikmalar:
		Ishlab chiqarish-texnik hujjatlarini yuritish
Talab etiladigan aniqlikni baholash		
O'lchashlarni bajarish shartlariga qo'yiladigan talablarni belgilash		
Ishlab chiqarish-texnik hujjatlarni amaldagi talablarga muvofiq rasmiylashtirish		
Bilimlar:		
Texnik hujjatlar turlari		
Protokol, akt va jurnallarga rasmiylashtirish tartibi		
Sertifikat va guvohnomalarni to'ldirish talablari		
Hujjatlarni saqlash talablari		
A2.03.5 – Kattalik birliklarini, qiyoslash va kalibrlash vositalarini qayta tiklash uchun ishchi etalonlarni saqlash va ishchi holatda saqlab turish	Mehnat harakatlari:	
	1. Ishchi etalonlarni qabul qilish, ro'yxatga olish	
	2. Ishchi etalonlar, qiyoslash va kalibrlash vositalarining holatini nazorat qilish	
	3. Etalonlarning tashqi va texnik holatini reja asosida tekshirish	
	4. Bo'limlarning ishchi etalonlar, qiyoslash va kalibrlash vositalariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash	
	5. Saqlash va foydalanish bo'yicha hujjatlarni yuritish	
	6. Ishchi etalonlarni belgilangan tartibda joylashtirish va topshirish	
	Ko'nikmalar:	
	Etalonlarga, qiyoslash va kalibrlash vositalariga texnik xizmat ko'rsatish	
	Ishchi etalonlarni to'g'ri saqlash	
	Qiyoslash, kalibrlash va etalonlarni ishga tayyorlash	
	Etalonlarning metrologik xususiyatlarini nazorat qilish	
	O'lchash natijalarini hujjatlashtirish	
	Nosozlik yoki og'ishlarni aniqlash	
	Kalibrlash jadvaliga rioya qilish va muddatlarni kuzatib borish	
	Ishlab chiqarish-texnik hujjatlarni amaldagi talablarga muvofiq rasmiylashtirish	
	Bilimlar:	
	Kattalik birliklari va ularning qo'llanishi	
	Ishchi etalonlar va o'lchash vositalarining vazifasi	
	Qiyoslash va kalibrlash tartibi	
	Metrologik tavsiflar	
	Saqlash sharoitlari talablari	
	Hujjatlarni to'ldirish tartibi	
Xavfsizlik va mehnat muhofazasi qoidalari		
Tayyor metodika asosida ishlash tartibi		

	A.2.04.5 - O'lchash vositalarini qiyoslash	Mehnat harakatlari:
		1. Qiyoslashga topshirilgan o'lchash vositalarini qabul qilish va identifikatsiya qilish
		2. O'lchash vositasining tashqi holatini va komplektligini vizual tekshirish
		3. Ishchi etalonlarni tanlash va ularni ishga tayyorlash
		4. Qiyoslash sharoitlarini ta'minlash
		5. Belgilangan metodika asosida qiyoslash o'lchovlarini bajarish
		6. Olingan natijalarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan solishtirish
		7. Og'ishlarni aniqlash va baholash
		8. Qiyoslash natijalarini rasmiylashtirish
		9. Qiyoslashdan o'tgan vositaga belgi qo'yish yoki guvohnoma tayyorlash
		10. Nomuvofiqlik aniqlansa, rad etish dalolatnomasini rasmiylashtirish
		11. Qiyoslangan vositalarni topshirish yoki saqlashga joylashtirish
		Ko'nikmalar:
		O'lchashlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'lchash uskunalaridan foydalanish
		O'lchash vositalarini qiyoslash uslubiyotlari va vositalarini qo'llash
		O'lchash vositalarini qiyoslash natijalarini rasmiylashtirish
		Qiyoslash metodikasini amalda qo'llash
		O'lchash natijalarini qayd etish va solishtirish
		Atrof-muhit omillarini nazorat qilish
		Kompyuter va dasturiy vositalar yordamida natijalarni qayta ishlash
		Bilimlar:
		O'lchash vositalarini qiyoslashga tayyorlash
		Ishchi etalonlarni saqlash va ishchi holatda ushlab turish
		Tasdiqlangan metodikalar asosida qiyoslash ishlarini bajarish
		Kalibrlash va qiyoslash jarayonida o'lchashlarni amalga oshirish
		Olingan natijalarni qayd etish va hujjatlashtirish
		O'lchash vositalarining yaroqliligini belgilangan mezonlar asosida baholash
Oddiy nosozliklarni aniqlash va boshlang'ich choralarni ko'rish		
Etalon va o'lchash vositalarini to'g'ri saqlash sharoitlarini ta'minlash		
Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish		

	A2.05.5 – O'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini, o'lchash vositalarining holati va qo'llanishini ta'minlash qoidalari va normalariga rioya etilishi ustidan metrologik nazorat	Mehnat harakatlari:
		1. O'lchash vositalarini ishlab chiqish uchun arizani metrologik ekspertizadan o'tkazish
		2. O'lchash vositalarini loyihalashtirish uchun texnik topshiriq ishlab chiqish
		3. O'lchash vositalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun texnik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish
		4. O'lchash vositalarining qabul qilish sinovlari
		5. O'lchash vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha materiallarni tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		O'lchash vositalarini ishlab chiqish zaruratini aniqlash
		Fizik kattaliklarni o'lchash usullari va vositalarining tahlilini amalga oshirish
		O'lchash sxemalarini ishlab chiqish
		O'lchash vositalarini loyihalashtirish, ishlab chiqish va tayyorlash uchun texnik topshiriqlar ishlab chiqish
		Metrologik ta'minot qismidagi texnik qarorlarni tahlil qilish va baholash
		Bilimlar:
		O'lchashlarning yagona birlikda bo'lishi tushunchasi va uning amaliy ahamiyati
		O'lchash vositalarining asosiy turlari va qo'llanish sohasi
		Qiyoslangan va qiyoslanmagan o'lchash vositalarini farqlash mezonlari
		O'lchash vositalarining yaroqlilik belgilari
		Metrologik nazoratning amaliy tartibi
		O'lchash vositalarini ekspluatatsiya qilish qoidalari aqlash va foydalanish sharoitlariga qo'yiladigan talablar
		Metrologik jurnal va ro'yxatlarni yuritish asoslari
O'lchash natijalarini qayd etish qoidalari		
Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha rahbarga axborot berish tartibi		
Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablari		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Analitik xarakterdagi masalalarni hal qilishga mas'ul	
	2. Ishning texnik va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlashga mas'ul	
	3. Ishni samarali tashkil etishga javobgarlik	
	4. Qiyoslash uskunalarida ishlashda to'g'ri foydalanish	
A3.5 – Bo'linmalarning metrologik ta'minoti bo'yicha ishlarni tashkillashtirish	A3.01.5 – Bo'linmada namunaviy o'lchash vositalarini qiyoslash ishlarini tashkillashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Qiyoslanadigan vositalarni aniqlash
		2. Qiyoslash rejasini tuzish
		3. Qiyoslashga tayyorlash
		4. Qiyoslash jarayonini tashkil etish
		5. Natijalarni rasmiylashtirish
6. Hisobot va hujjatlarni tayyorlash		

		Ko'nikmalar:
		Qiyoslash uslubiyotlarini ishlab chiqish zaruratini aniqlash
Hisobotlarni avtomatik shakllantirish		
Elektron hujjatlashtirish		
Namunaviy o'lchash vositalari reyestrini raqamli bazada yuritish		
Elektron protokollarni yaratish va saqlash		
O'lchash vositalarini qiyoslash jadvallarini tuzish		
Bilimlar:		
Namunaviy o'lchash vositalarining metrologik tavsiflari		
Qiyoslashning maqsadi, bosqichlari va tashkil etish tartibi		
Qiyoslash bo'yicha amaldagi metodikalar va normativ hujjatlar talablari		
Ishchi va namunaviy etalonlarning qo'llash qoidalari		
Qiyoslash sharoitlariga qo'yiladigan talablar		
O'lchash xatoliklari va natijalarni baholash mezonlari		
Qiyoslash hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi		
Nomuvofiqlik aniqlanganda ko'riladigan choralar tartibi		
Qiyoslash ishlarini rejalashtirish va hisobini yuritish tartibi		
Metrologik izchillik tamoyillari		
A3.02.5 – Etalonlar bazasi, qiyoslash uskunalari va namunaviy o'lchash vositalarini yangilash bo'yicha ishlarni tashkillashtirish	Mehnat harakatlari:	
	1. Ishchi etalonlar, qiyoslash vositalarining holatini nazorat qilish	
	2. Ishchi etalonlar va qiyoslash uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish jadvallarini tasdiqlash	
	3. Bo'limlarning ishchi etalonlar, qiyoslash vositalariga bo'lgan ehtiyojini tahlil qilish va aniqlash	
	Ko'nikmalar:	
	Ishchi etalonlar va qiyoslash holatini nazorat qilish jadvallarini tuzish va foydalanish	
	Qiyoslash uskunalarini va namunaviy o'lchash vositalarining texnik holatini baholash	
	Yangi uskunalarini ekspluatatsiyaga qabul qilish	
	Hujjatlarni rasmiylashtirish	
	Bilimlar:	
	O'lchashlar birligini ta'minlash va metrologik ta'minotga oid amaldagi qonunchilik hamda reglamentlovchi hujjatlar talablari	
Etalonlar bazasini shakllantirish, yuritish va yangilash tartibi		
Ishchi etalonlar va namunaviy o'lchash vositalarining metrologik tavsiflari		

		Qiyoslash va kalibrlash vositalariga qo'yiladigan texnik-metrologik talablar
		Etalonlar va qiyoslash uskunalarning ekspluatatsion hujjatlari mazmuni
		Uskunalarni texnik holatini baholash
		Yangilash va modernizatsiya qilish mezonlari
		Texnik topshiriq (TT) va texnik talablarni shakllantirish tartibi
		Metrologik izchillikni ta'minlash prinsiplari
		Yangi uskunalarni ekspluatatsiyaga joriy etish tartibi
	A3.03.5 – Bo'limlarda metrologik ta'minot holatini tahlil qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Metrologiya xizmati bo'limlarining malakali kadrlar bilan butlanganligini tahlil qilish
		2. Metrologiya xizmati bo'limlarida o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha normativ hujjatlar fondini tahlil qilish
		3. O'lchash vositalarining holatini tahlil qilish
		Ko'nikmalar:
		Metrologik ta'minot holati to'g'risida xulosalar tayyorlash va asoslash uchun tizimli tahlil usullarini qo'llash
		Normativ hujjatlarning ishlab chiqilish zaruratini aniqlash
		Metrologik ma'lumotlarni elektron bazalarda umumlashtirish usullari
		O'lchash vositalari hisobini yuritish
		O'lchash natijalarini normativ qiymatlar bilan solishtirish
		Ichki qiyoslash sxemalarini ishlab chiqish zaruratini aniqlash
		Bilimlar:
		O'V mavjudligini tekshirish tartibi
		O'lchash vositalari bo'yicha ma'lumotlarni elektron bazalarda yuritish va umumlashtirish usullari
	Qiyoslash muddati nazorati	
	Hisobot ma'lumotlarini yig'ish	
	A3.04.5 – Tashkilot metrologiya xizmati bo'limlarini o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash sohasida akkreditatsiyaga tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Tashkilot metrologiya xizmati bo'limlarining akkreditatsiyaning e'lon qilingan sohasidagi talablarga muvofiqligini baholash
		2. Tashkilot metrologiya xizmati bo'limlarining akkreditatsiyaning e'lon qilingan sohasidagi talablarga muvofiqligini baholash natijalari bo'yicha tuzatuvchi chora-tadbirlar
		3. Tashkilot akkreditatsiyasidan o'tgunga qadar tashkilotning metrologiya xizmati bo'limlarini attestatsiyadan o'tkazish

		Ko'nikmalar:
		Tashkilot metrologiya xizmati bo'limlarining faoliyatini tahlil qilish
Tashkilot metrologiya xizmati bo'limlarining akkreditatsiya talablariga muvofiqligini baholash		
Normativ hujjatlarning ishlab chiqilish zaruratini aniqlash		
Hisobotlar va texnik hujjarni rasmiylashtirish		
Bilimlar:		
Akkreditatsiya mezonlari va baholash tartibi		
Akkreditatsiya uchun talab qilinadigan hujjatlar tarkibi va tuzilmasi		
Texnik kompetensiyani isbotlash usullari		
Auditga tayyorgarlik ko'rish tartibi va auditorlar bilan ishlash qoidalari		
Nomuvofiqliklar bo'yicha tuzatish rejalarini ishlab chiqish prinsiplari		
Akkreditatsiya doirasini (scope) shakllantirish asoslari		
Akkreditatsiyadan keyingi monitoring va qayta baholash talablari		
Metrologiya xizmatini xalqaro talablar darajasiga moslashtirish yondashuvlari		
A3.05.5 Texnik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish ishlarini tashkillashtirish	Mehnat harakatlari:	
	1. Bo'linmada texnik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazishni rejalashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish	
	2. Texnik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish natijalarini tasdiqlash	
	Ko'nikmalar:	
	Texnik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazishni rejalashtirish	
	Texnik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish	
	Texnik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish natijalarini rasmiylashtirish	
	Bilimlar:	
	Metrologik ekspertizaning mazmuni, bosqichlari va o'tkazish tartibi	
	Texnik hujjatlarning metrologik talablarga muvofiqligini baholash mezonlari	
	Chizmalar, texnik shartlar va spetsifikatsiyalarda o'lchash parametrlarini tahlil qilish usullari	
	Texnik hujjatlarda o'lchov birliklari, aniqlik ko'rsatkichlari va tolerantliklarni tekshirish qoidalari	
	Metrologik xatolar va noto'g'ri qo'llangan o'lchash talablari turlarini aniqlash metodlari	
	Metrologik ekspertiza xulosasi va dalolatnomalarini rasmiylashtirish tartibi	
	Texnik hujjatlarga tuzatish kiritish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash prinsiplari	
	Loyiha va texnologik hujjatlarda metrologik izchillikni baholash yondashuvlari	

	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	1. Ishni samarali tashkil etishga mas'ul
		2. Ishning texnik va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlashga mas'ul
		3. Analitik xarakterdagi masalalarni hal qilish uchun turli xil usullardan foydalanadi
<p>Texnik va/yoki texnologik talab:</p>	<p>Texnik talablar:</p> <p>O'lchash vositalari va sinov uskunalarining ishlash prinsiplarini, ularning metrologik tavsiflarini hamda texnik pasport ma'lumotlarini puxta bilishi;</p> <p>O'lchash vositalari va qiyoslash uskunalarini ishga tayyorlash, sozlash va standart talablariga muvofiq texnik holatini tekshirish;</p> <p>O'lchashlarni bajarishda foydalaniladigan asbob-uskunalar, stendlar, o'lchash bloklari va yordamchi jihozlardan samarali va to'g'ri foydalanish;</p> <p>O'lchash vositalarining ishonchliligini ta'minlash uchun ularni vaqtli profilaktikadan o'tkazish, sozlash va kalibrlashni tashkil etish;</p> <p>O'lchash ishlarini amalga oshirishda metrologik standartlar talablariga rioya qilish;</p> <p>Barcha o'lchash vositalari va uskunalarning texnik pasportlari, kalibrlash sertifikatlari va davlat reyestri ma'lumotlari asosida hisobini yuritish;</p> <p>Ish muhitida harorat, namlik, vibratsiya, chang va elektromagnit ta'sir darajalari belgilangan me'yorlar doirasida saqlanishini ta'minlash;</p> <p>O'lchash vositalari ishlayotgan muhitdagi xavfsizlik talablariga (elektr, yong'in, mexanik, kimyoviy xavfsizlik) to'liq amal qilish;</p> <p>Barcha texnik hujjatlar va ekspluatatsiya qoidalariga muvofiq ravishda asboblarni ta'mirlash va sozlash ishlarida ishtirok etish;</p> <p>O'lchash natijalarining aniqligi va ishonchliligini ta'minlash uchun statistik tahlil va xatolik baholash usullarini qo'llay olishi lozim.</p> <p>Texnologik talablar:</p> <p>O'lchash jarayonlarini rejalashtirish, bajarish va natijalarini tahlil qilishni texnologik tartibda tashkil etish;</p> <p>O'lchash vositalari va etalonlardan foydalanish bo'yicha texnologik yo'riqnomalar, laboratoriya reglamentlari va metrologik yo'l-yo'riqlarga amal qilish;</p> <p>Qiyoslash ishlarini standartlashtirilgan texnologik kartalar asosida bajarish;</p> <p>Barcha o'lchash operatsiyalari haqida elektron yoki qog'oz jurnalda to'liq va aniq yozuvlar yuritish;</p>	

	<p>O'lchash vositalarida aniqlik va ishonchlikni ta'minlash uchun ularni belgilangan muddatlarda sinov va qayta kalibrlashdan o'tkazish;</p> <p>Faqat malaka sertifikatiga ega va vakolatli metrologlar o'lchash jarayonlarini amalga oshirishi mumkin;</p> <p>Laboratoriyadagi barcha jarayonlar milliy va xalqaro metrologik talablarga, texnik xavfsizlik va mehnat muhofazasi qoidalariga mos ravishda olib borilishi kerak;</p> <p>Texnik xizmat ko'rsatish, sozlash ishlari bo'yicha tayyorlangan hisobotlar belgilangan shaklda rasmiylashtirilishi va arxivda saqlanishi shart;</p> <p>O'lchash jarayonida ish samaradorligi, sifat va muddat ko'rsatkichlari doimiy ravishda tahlil qilinib, takomillashtirib borilishi lozim.</p>
--	---

Kasbning nomi:	Metrologiya bo'yicha professional-mutaxassis	
Mashg'ulot nomining kodi:	21415	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); Jamoada ishlash va hamkorlik qilish; O'lchash vositalari, ishchi etalonlar va qiyoslash uskunalaridan belgilangan metodikalarga muvofiq foydalanish; O'lchash, qiyoslash va kalibrlash jarayonlarini mustaqil tashkil eta olish va bajarish; O'lchash natijalarini baholash, og'ishlarni aniqlash va xulosa chiqarish; Metrologik ta'minot holatini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish; Samarali muloqot olib borish; Muammolarni tahlil qilish va yechim topish; Tanqidiy fikrlash; Bag'rikenglik va moslashuvchanlik; Vaqtни rejalashtirish va ustuvorliklarni belgilash; Mas'uliyat va intizom; O'zgarishlarga tez moslashish; Kreativ fikrlash; Yetakchilik va jamoa shakllantirish; Muzokara olib borish va aloqalar o'rnatish; Mijozlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash; Kasbiy o'sishga intilish; Aniqlik va xolislikni saqlash; Professional etika va tashkilot siyosatiga rioya qilish; O'zgarishlarni boshqarish; Ishga ijodiy yondashish; Moslashuvchanlik; Mulikka ehtiyotkor munosabat.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrída mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Metrologiya bo'yicha texnik
	6	Etalonlarni saqlovchi
	7	Bosh metrolog

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.6 – O'lchash vositalari va sinov uskunalari sinash, metrologik attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash va kalibrlash ishlarini amalga oshirish ishlarini tashkillashtirish	B1.01.6 – Ariza beruvchiga o'lchash vosiitalarini sinash va sinov uskunalari, attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash va kalibrlash tartib-taomillari bo'yicha maslahat berish. Kelib tushgan murojaat bo'yicha O'Vni metrologik attestatlash, qiyoslash va kalibrlash sertifikatini rasmiylashtirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Buyurtmachi bilan metrologik attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash yoki kalibrlash, zarur texnik hujjatlarni tayyorlash tartibini muhokama qilish
		2. Metrologik attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash yoki kalibrlash ishlarini amalga oshirish uchun ariza bo'yicha qarorni tasdiqlash
		3. O'lchash natijalariga ishlov berish
		4. O'lchash natijalarini hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		O'lchash asboblari, universal va maxsus o'lchash vositalaridan foydalanish
		O'lchash natijalarini hujjatlashtirish
		Ishlab chiqarish-texnik hujjatlarni rasmiylashtirish
		Me'yoriy hujjatlar bilan ishlash
		MS Office dasturlarida ishlash
		Axborot tizimlari va elektron ma'lumotlar bazalarini yuritish
		Kompyuter yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash va hisobot tayyorlash
		Xavfsizlik qoidalariga muvofiq ishlarni bajarish
		Xavfsiz ish sharoitlarini tashkil etish bo'yicha profilaktik choralar ko'rish
		Energiyani tejash va samaradorlik bo'yicha tahlil va tavsiyalar ishlab chiqish
		Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va ularda ishtirok etish
		Taqdimot tayyorlash va omma oldida chiqish qilish
		Elektron hujjatlar yaratish va yuritish
		Sun'iy intellekt vositalaridan ish jarayonida foydalanish
		Bilimlar:
		O'lchash asboblari hamda universal va maxsus o'lchash vositalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari
		O'lchash metodlari va natijalarni qayd etish tartibi
		O'lchash natijalarini hujjatlashtirish talablari
		Ishlab chiqarish-texnik hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari
		Metrologiya sohasidagi me'yoriy hujjatlar va ularni qo'llash tartibi
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablari
		Elektron hujjatlar bilan ishlash asoslari
		MS Office va axborot tizimlarida ma'lumotlarni kiritish va qayta ishlash qoidalari
Elektron ma'lumotlar bazasini yuritish prinsiplari		
Kompyuter yordamida hisobot shakllantirish tartibi		

	Mas'uliyat va mustaqillik:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Analitik xarakterdagi masalalarni hal qilishga mas'ul 2. Ishning texnik va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlashga mas'ul 3. Ishni samarali tashkil etishga javobgar
B2.6 – O'lchash vositalari va sinov uskunalarning muvofiqligini tasdiqlash	B2.01.6 – Nazorat qilinadigan parametrlarning haqiqiy qiymatlarini aniqlash uchun aniq o'lchashlarni amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. O'lchash vositalarining tanloviga ta'sir qiluvchi buyumlarning parametrlarini aniqlash
		2. O'lchashlarning joiz xatoligini (noaniqligini) aniqlash
		3. O'lchash usul va vositalarini tanlash
		4. O'lchash vositalaridan foydalanish variantlarini va o'lchashlarni bajarish sharoitlarini tanlash
		5. Nazorat qilinadigan parametrlarning haqiqiy qiymatlarini aniqlash uchun o'lchashlarni bajarishga tayyorgarlik
		6. O'lchash eksperimentini amalga oshirish
		7. O'lchash natijalariga ishlov berish
		8. O'lchash natijalarini hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		O'lchash usul va vositalarining imkoniyatlarini tahlil qilish
		O'lchashlarni bajarish uchun zarur bo'lgan o'lchash uskunalarni qo'llash
		O'lchash natijalarini olish, talqin qilish va tahlil qilish
		O'lchash natijalarning xatoligini (noaniqliklarini) hisoblash
	Bilimlar:	
	Tashkilotda metrologik ta'minot bo'yicha ishlarni reglamentlovchi normativ va uslubiy hujjatlar	
	O'lchash usul va vositalarini tanlash masalalarini reglamentlovchi normativ va uslubiy hujjatlar	
	O'lchashlarni bajarish shartlarini reglamentlovchi normativ va uslubiy hujjatlar	
	O'lchash usullarining qo'llanish sohasi	
	O'lchash vositalarining texnik tavsiflari, konstruktiv xususiyatlari, belgilangan maqsadi va qo'llash tamoyillari	
Mahsulot sifati va texnologik jarayon parametrlari ko'rsatkichlari		
B2.02.6 – Ishlab chiqarish-texnik hujjatlarni rasmiylashtirish va yuritish	Mehnat harakatlari:	
	1. Bo'linmada o'lchash va sinov uslubiyotlarini reglamentlovchi attestatsiya to'g'risidagi belgi yoki sertifikatga ega hujjatlar mavjudligini tekshirish	
	2. Qo'llanadigan o'lchash vositalari, o'lchash shartlari, o'lchashlarga tayyorgarlik va ularni bajarish tartibi, o'lchash natijalariga ishlov berish va rasmiylashtirishning uslubiyotni reglamentlovchi hujjatda ko'rsatilgan talablarga muvofiqligini nazorat qilish	
	3. O'lchashlarni amalga oshiruvchi operatorlar malakasining hujjatda reglamentlangan darajaga muvofiqligini nazorat qilish	
	4. Bo'linmalarni metrologik nazorat qilish jadvalini ishlab chiqish	

		5. Metrologik nazorat natijalarini rasmiylashtirish
		6. Aniqlangan qoidabuzarliklar uchun ko'rsatmalar berish
7. Aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar bajarilishini nazorat qilish		
Ko'nikmalar:		
Ishlab chiqarish-texnik hujjatlarni tahlil qilish		
Talab etiladigan aniqlikni baholash		
O'lchashlarni bajarish shartlariga qo'yiladigan talablarni belgilash		
Ishlab chiqarish-texnik hujjatlarni amaldagi talablarga muvofiq rasmiylashtirish		
Bilimlar:		
O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishi va metrologik ta'minot masalalari		
Tashkilotda metrologik ta'minot bo'yicha ishlarni reglamentlovchi normativ va uslubiy hujjatlar		
O'lchashlar aniqligini normalash tamoyillari		
O'lchash usullarining qo'llanish sohasi		
O'lchash vositalarining texnologik imkoniyatlari va qo'llanish sohasi		
B2.03.6 – Kattalik birliklarini, qiyoslash va kalibrlash vositalarini qayta tiklash uchun ishchi etalonlarni saqlash va va ishchi holatda saqlab turish	Mehnat harakatlari:	
	1. Ishchi etalonlar, qiyoslash va kalibrlash vositalarining holatini nazorat qilish	
	2. Bo'limlarning ishchi etalonlar, qiyoslash va kalibrlash vositalari bilan butlanganligini nazorat qilish	
	3. Ishchi etalonlar va qiyoslash uskunalari texnik xizmat ko'rsatish jadvalarini ishlab chiqish	
